

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor
G. Abduraxmanova




2026 y. « _____ » _____

“O‘ZBEK TILINI O‘QITISH VA TA’LIM METODIKASI” KAFEDRASI
13.00.07 – “Ta’limda menejment”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

D A S T U R I

TOSHKENT – 2026

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “O‘zbek tilini o‘qitish va ta’lim metodikasi” kafedrasining 2026 yil “26” “08” dagi 7 –sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri  M.N. Kamalova

Tuzuvchilar:

M.F. Xakimova

– TDIU, “O‘zbek tilini o‘qitish va ta’lim metodikasi” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

Sh.E. Mamarajabov

– TDIU, “O‘zbek tilini o‘qitish va ta’lim metodikasi” kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

1. Z.K.Ismailova

– TIQXMMI, “Professional ta’lim” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

2. N.S. Fayzullayeva

– TDIU, “O‘zbek tilini o‘qitish va ta’lim metodikasi” kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi

KIRISH

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim sohasida juda katta davlat siyosati va islohotlari olib borilayotganligini ta'kidlash lozim. Oliy ta'limni takomillashtirish va rivojlantirish, zamonaviy talablarga mos ta'lim tizimini yaratish va kadrlarni tayyorlash borasida qabul qilinayotgan qonun, farmoyish va qarorlar dunyo va mahalliy jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilayotganligi, ushbu yo'nalishda ilmiy ishlarga bo'lgan qiziqishni ham oshirayotganligini ko'rishimiz mumkin. Olib borilayotgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining marketing, moliyaviy va iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Tayanch doktorantura (PhD) uchun "13.00.07 - «Ta'limda menejment» ixtisosligi bo'yicha mazkur dastur O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-637-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida tayyorlandi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish, yangilikka intiluvchan, innovasion faoliyat bilan shug'ullana oladigan yuksak salohiyatli kadrlarni tayyorlash, innovasion faoliyatni takomillashtirish, kasbiy faoliyat yo'nalishlari qamrovini kengaytirish, kasbiy innovasion faoliyatlarni rivojlashtirish hamda moddiy-texnika bazani kengaytirishning me'yoriy huquqiy asoslari yaratilmoqda. "...Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish", "...Salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Mazkur dasturni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan mutaxassis kadrlar tayyorlash ishini tubdan qayta qurish, oliy ta'limni tubdan isloh qilish ishini jadallashtirish borasida qo'yilgan vazifalar, jumladan "...oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish" masalalari hisobga olindi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan sharoitda oliy ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hozirgi zamon dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni kengaytirish bilan bir vaqtda oliy ta'lim tizimini tubdan yaxshilash, isloh qilish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, birinchi navbatda, oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladigan maxsus fanlarning mazmuni va o'quv dasturlarini xalqaro andozalarga moslashtirishni talab qiladi.

Ta'lim sifatini yanada takomillashtirish, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish sifatini ta'minlash, yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo'nalishdagi o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash hozirgi paytda davr talabiga aylanib bormoqda.

Ushbu dastur oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, zamonaviy mutaxassislarni kasbiy faoliyatida foydalanish uchun uni o'zlashtirishga qaratilgan. Oliy ta'limdan keyingi ta'limda bo'lgan bosqichlarda orttirilgan bilimlarga tayangan holda oliy ta'lim muassasasida pedagogika fanini yanada chuqurroq egallash va tanlangan kasbiga yo'naltirilgan holatda o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Dastur 13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Malakaviy imtihon dasturi 13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlar uchun mo'ljallangan.

TA'LIMDA MENEJMENT

1-Mavzu. Ta'lim menejmenti nazariyalarining rivojlanish bosqichlari.

Boshqarish qonuniyatlari va tamoyillari

Ta'lim menejmenti tushunchasi. Umumfalsafiy qonunlar va pedagogik kategoriyalar boshqaruv metodologiyasining asosi ekanligi. Ta'lim muassasalarini boshqarish sohalari: pedagogik jarayonni boshqarish; ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish; moliyaviy boshqarish; xodimlarni boshqarish. Boshqarish sohalari qonunlari va uning ahamiyati.

Ta'lim muassasalarini boshqarishning asosiy tamoyillari: yakkaboshchilik va kollegiyalik; ilmiylik; rejalilik; boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirish; kadrlarni tanlash va joylashtirish; shaxsiy tashabbus; javobgarlik va tavakkalchilik.

2-Mavzu. Iqtisodiyot va ta'lim

Iqtisodiyot va ta'lim tushunchalarining mazmun va mohiyati. Iqtisodiy kategoriyalar, qonunlar va tamoyillar. Maxsus (iqtisodiy) fanlarni o'qitish metodikasi. Mikro-makroiqtisodiyot, menejment-marketing, bilimlar va innovatsion iqtisodiyoti. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy ta'lim. Iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari. Iqtisodiy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. Talabalarda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malalarni shakllantirish mexanizmlari. Innovatsion faoliyat tushunchasi. Bo'lg'usi mutaxassis kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasi.

3-Mavzu. Ta'lim muassasalarini boshqarishga tizimli-vaziyatli yondashuv

Ta'lim muassasasi va tashqi muhit. Tashkiliy-pedagogik maqsad va madaniyat: tayanch qadriyatlar, strategik vazifalar va qisqa muddatli rejalar. Ta'lim muassasasi resurslari: tashkiliy-moddiy va insoniy.

Tizimlar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi. Ta'lim muassasalari, tashkilotlari va tizimi haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi va uning turlari.

Ta'lim tizimi yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida. Ta'lim muassasalari va tashkilotlari tashkiliy-pedagogik tizim sifatida. Pedagogik jarayon (ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti) tashkiliy-metodik tizim sifatida va uning mohiyati.

Ta'lim muassasalari va tashkilotlarini boshqarishga tizimli va vaziyatli yondashuvlarning mohiyati.

4-Mavzu. Ta'lim muassasalarini boshqarishning tashkiliy tuzilishi

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi (bo'g'inlari, bosqichlari) va tuzilmalari (ko'p, uch va ikki bosqichli (bo'g'inli). Boshqaruvda vertikal va gorizontaal aloqalar.

Ta'lim muassasalarini boshqarish tashkiliy tuzilmasining asosiy turlari: chiziqli va funksional tuzilmalar. Boshqaruv tashkilotlari: yuqori, quyi va teng huquqli tashkilotlar.

Ta'lim muassasalari (maktabgacha ta'lim tashkilotlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus; oliy; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim), ularning tashkiliy tuzilmasi. Ta'lim muassasalarida jamoat boshqaruvi.

5-Mavzu. Ta'lim muassasalarini boshqarish usullari

Boshqaruv usullari haqida tushuncha. Ta'lim muassasalarini boshqarish usullari: iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, psixologik va xuquqiy.

Ta'lim muassasalarini boshqarishning tashkiliy-farmoyishli usullari va ularning turlari: tashkiliy-barqarorlashtiruvchi (ma'muriy ta'sir), farmoyish (buyruq, farmoyish, ko'rsatma va h.k.) va intizom.

Ta'lim muassasalarini boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari va ularning turlari: ijtimoiy tartibga solish (nizomlar, shartnomalar, o'zaro majburiyatlar, xodimlarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va h.k.); psixologik (kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, mehnatni insoniylashtirish, malakali kadrlar tanlash va ularni o'qitish va x.k.lar).

6-Mavzu. Ta'lim muassasalarini boshqarish funksiyalari

Ta'lim muassasalari boshqaruv jarayonining mazmuni (maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilish) haqida tushuncha.

Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni boshqarish, ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish, moliyaviy boshqarish va xodimlarni boshqarish funksiyalarining o'ziga xosligi.

Ta'lim muassasalarida boshqaruvning asosiy vazifalari: rejalashtirish; tartibga solish; tashkil etish; rag'batlantirish; nazorat va hisobga olish; undash. Ta'lim muassasalarini boshqarishning maxsus vazifalari.

7-Mavzu. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish

Ta'lim muassasalari, tashkilotlari va tizimida boshqaruv qarorlarining ahamiyati. Karor – muqobil tanlov ekanligi. Boshqaruv qarorlari va ularning turlari (rejalashtirish, faoliyat yuritishni tashkil etish, asoslash va nazoratga oid qarorlar).

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni haqida tushuncha. Sof intuitiv qarorlar. Muloxazaga asoslangan qarorlar.

8-Mavzu. Ta'lim muassasalarida marketing xizmatini boshqarish

Ta'lim sohasidagi marketing – mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab va ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat ekanligi.

Marketing faoliyatining tarkibi: ta'lim xizmatlari bozorini o'rganish; davlat va jamiyat (iste'molchi) buyurtmasiga ko'ra bitiruvchilar (mutaxassis kadrlar) tayyorlashni rejalashtirish, ta'lim xizmatlari bozorini egallash; reklamani amalga oshirish; bitiruvchilar (mutaxassis kadrlar)ni iste'molchiga yetkazib berish.

Ta'lim xizmatlari marketingi turlari: konversion marketing (talabni yaratish); rag'batlantiruvchi marketing (talabni rag'batlantirish); remarketing (talabni oshirish); sinxromarketing (talabni muvozanatlash); qo'llovchi marketing (talabni

qo'llash); demarketing (talabni kamaytirish); qarshilik qiluvchi marketing (talabni tugatish).

Ta'lim xizmatlari marketingi strategiyasi, uning bosqichlari. Ta'lim xizmatlari bozorini egallashning mohiyati.

9-Mavzu. Oliy ta'lim muassasasi xarajatlarini rejalashtirish

Ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatishga ketadigan xarajatlarni rejalashtirish. Talabalar tarkibini aniqlash. Ish haqi va stipendiya. Devon va xo'jalik sarflari. Xizmat safari va xizmat bilan bog'liq qatnovlar. Ta'lim, talabalar ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot ishlari va resurs markaziga kitob sotib olish bilan bog'liq xarajatlar. Moddiy-texnika bazasi harajatlari. Ta'lim sarflarining hisob-kitobi. Ilmiy-texnikaviy mahsulot yaratish bo'yicha shartnoma.

10-Mavzu. Iqtisodiyotni boshqarishning tashkiliy tuzilishi

Iqtisodiyotni boshqarish. Menejment tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha. Tashkiliy tuzilmalar turlari. Tashkiliy strukturalarni loyihalashtirish. Ta'lim iqtisodiyoti menejmentining iqtisodiy usullari. Ta'lim iqtisodiyoti menejmentining tashkiliy farmoyish usuli. Ta'lim iqtisodiyoti menejmentining ijtimoiy-psixologik usullari.

11-Mavzu. Ta'lim muassasalarini boshqarish tizimida axborot va kommunikasiya

Boshqarish jarayoni – qarorlar qabul qilish maqsadida axborot to'plash, uzatish va qayta ishlash, buyruqlar ko'rinishida axborot berish va uni ijrochilarga yetkazishdan iborat ekanligi.

Ta'lim muassasalarini boshqaruv tizimida umumiy axborot turlari: tezkor, statistik, moliyaviy, iqtisodiy, hisob-kitob, ta'minot, kadrlar bo'yicha, pedagogik-texnologik, marketing, ijtimoiy va boshqalar.

Ta'lim muassasalarida kelib chiqish manbasiga ko'ra (tashqi va ichki), yo'nalishiga ko'ra (boshlang'ich va boshqaruvchi), barqarorlik darajasiga ko'ra (barqaror, shartli-barqaror, o'zgaruvchan) axborotlar, ularning mohiyati.

Ta'lim muassasalarida axborotlarni ro'yxatga olish va saqlash vositalari.

Ta'lim muassasalarida oddiy va murakkab axborot tizimlari. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) va uning vazifalari: axborotni qabul qilish; axborotni qayta ishlash; axborotni saqlash va yig'ish; boshqaruv tashkilotiga axborot berish; ijrochilarga buyruq uzatish.

Ta'lim muassasalari va tashkilotlarida boshqaruv texnikasi va tasnifi haqida tushuncha. Boshqaruv texnikasi vositalari. Tashkiliy texnika vositalari (oddiy qurol va vositalar; axborot olish va qayta ishlash, ko'chirish, ko'paytirish, aloqa vositalari; axborot uzatish, xizmat ko'rsatish uskunalari).

12-Mavzu. Ta'lim muassasalarida boshqaruv madaniyati

Ta'lim muassasalarini boshqaruv jarayonida axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyati. Boshqaruv madaniyati tushunchasi.

Ta'lim muassasalarida boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlari: menejerlar madaniyati; boshqaruv jarayoni madaniyati; mehnat sharoiti madaniyati; xujjatlar yuritish madaniyati.

Menejer madaniyati komponentlari: menejer madaniyatining umumiy darajasi; boshqaruv ilmini o'zlashtirishi; boshqaruv san'atini egallashi; menejering shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini; menejering boshqaruv uslubi.

Boshqaruv jarayoni madaniyati komponentlari: boshqaruvning zamonaviy texnologiyasi; boshqaruv mehnatini maqbul tashkil etish; boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish; tashrifchilarni qabul qilish, telefon orqali so'zlashish, majlislar o'tkazish.

Mehnat sharoiti madaniyati komponentlari: ish (o'quv-tarbiya) jarayoni madaniyati; ish o'rinlarini tashkil etish madaniyati; xizmat ko'rsatish madaniyati; jixozlash; shovqin.

Hujjatlar yuritish madaniyati komponentlari: hujjatlarni rasmiylashtirish; hujjatlarning xizmat qilish muddati; hujjatlardan foydalanishning qulayligi; hujjatlar bilan xizmat ko'rsatish ishonchliligi.

13-Mavzu. Ta'lim muassasalarida nizolarni boshqarish

Ta'lim muassasalari va tashkilotlaridagi nizolar – aniq shaxs yoki guruhlardan iborat bo'lgan ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasida murosa mavjud bo'lmash holati ekanligi. Nizolarning turlari va sabablari: shaxsning ichki nizosi; shaxs va guruh o'rtasidagi nizolar; shaxslar o'rtasidagi nizolar; guruhlar o'rtasidagi nizolar.

Ta'lim muassasalari va tashkilotlaridagi nizoli vaziyatlar: tarkibiy va shaxslar o'rtasidagi nizoli vaziyatlar. Nizolarni xal etish usullari: ishga bo'lgan talabni tushuntirish; muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish choralaridan foydalanish; umumiy tashkiliy maqsadlar majmuini belgilash; rag'batlantirish tizimini qo'llash.

Ta'lim muassasalari va tashkilotlarida nizolarni bartaraf etishning shaxslararo uslublari: cheklanish; silliqlash; nuqtai nazarni zo'rlik bilan qabul qildirish; kelishuv. Stress holatlarini (ruxiy zarbani) boshqarish yo'llari.

14-Mavzu. Rahbarning boshqaruv faoliyati samaradorligi

Rahbarning ish uslubi. Menejmentda motivlashtirish tushunchasi va nazariyasi. Liderlik va uning o'ziga xos xususiyatlari. Boshqarish tamoyillari va uslubi. Rahbar va hokimiyat. Rahbar va vaqt. Boshqarish vositalari. Ishontirish boshqarishning asosi sifatida. Boshqaruv qarorlari menejer ishining samaradorligi mahsuli sifatida. Ishga doir munosabatlarda muloqot madaniyati. Xodimlarning ijtimoiy xulq-atvorini rag'batlantirish. O'quv-tarbiya jarayonidagi o'z-o'zini nazorat qilish boshqarish vositasi. Mehnatni rag'batlantirish tartibi.

15-Mavzu. Ta'lim tizimini moliyalash

Ta'lim tizimini moliyalash mazmuni. Ta'lim muassasalari byudjetdan tashqari mablag'ining shakllanishi. Ta'lim muassasalarini byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarish.

16-Mavzu. Ta'lim muassasasining iqtisodiy faoliyatini liberallashtirish

Oliy ta'lim muassasalarining rivojlantirishda byudjetdan tashqari mablag'lari. Oliy ta'lim muassasalarini tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish. Ta'lim sohasida soliq siyosatini rivojlantirish. Ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari moliyaviy mablag'lari. Ta'lim muassasalarini byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarish. Ta'lim sohasida kreditlar olish. Ta'lim byudjeti va monitoring tushunchalari. Ta'lim muassasasini moliyalash tartibi. Ta'lim muassasasini moliya bo'limlarining faoliyati.

17-Mavzu. Ta'limning mazmuni

Ta'limning mazmuni. Ta'limning Davlat ta'lim standarti. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatori. O'quv reja, fan dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar. O'quv reja, fan dasturlarini ishlab chiqish. Iqtisodiy ta'limning barqaror darajasini ta'minlash. O'quv yuklamalarning me'yoriga keltirilishi. Ta'lim oluvchilar bilimni baholash mezonlarining ishlab chiqilishi. O'quv-tarbiya jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlanishi. Iqtisodchi mutaxassislar malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarning belgilanishi. Iqtisodchi kadrlarning maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan, ishlab chiqarishning samarali integrasiyasini ta'minlanishi. Ta'lim mazmuni tuzilmasining makrodarajasi. Umumta'lim va kasbiy tayyorgarlik. Mikrodarajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi.

18-Mavzu. Ta'lim muassasasini boshqarish

Pedagogik jamoa – o'quv muassasasi boshqarishning ob'ekti. Pedagogik boshqarish tushunchasi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish. Pedagogik faoliyatni faollashtirish. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi. Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili. Rahbar va uning shaxsi: ma'naviy yetukligi, intizom va mehnatga bo'lgan munosabati, bilim darajasi, tashkilotchilik qobiliyati, boshqarish samaradorligini tashkil qila olish qobiliyati. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar. Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'naltirilganligi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing. Ta'lim tizimini boshqarish strukturasi.

19-Mavzu. Strategik boshqaruv va rejalashtirish

Ta'lim jarayonini boshqarishga tizimli yondashuv. Strategik boshqarish va rejalashtirish. Xodimlarni tanlash va rejalashtirish. Boshqaruv madaniyati. Strategik rejalashtirishda mamlakat, uning mintaqalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, maqsadli parametrlari, ustuvor vazifalarini belgilash, chora-tadbirlarni ishlab

chiqish va amalga oshirish.

20-Mavzu. Ta'lim xizmatlarining asosiy yo'nalishlari va uni rivojlantirish

Malakali mutaxassislarga talabni belgilash. Ta'lim xizmatlarini tashkil etish prinsiplari. Ta'lim tizimida marketing faoliyati xususiyatlari. Milliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanish tendensiyalari. Kadrlar bozorini rivojlantirishda ta'lim xizmatlarining amaliy jihatlar. O'zbekistonda ta'lim xizmatlariga talab va taklif darajasi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida o'quv yurtlarining kasbiy ta'lim xizmatlari bozoridagi strategiyasi va taktikasi.

21-Mavzu. Mehnat salohiyati va undan foydalanish

Iqtisodiyotda mehnat resurslari, tarkibi va iqtisodiyotdagi vazifalari. Mamlakatda ishsizlik va bandlilik darajasi. O'zbekistonda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari. Mehnat bozori va uning o'ziga xos xususiyatlari. Ish kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash. Globallashtirish sharoitida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi. Iqtisodiyotda mehnat resurslaridan foydalanishni takomillashtirish. Aholini ish bilan ta'minlash. O'zbekiston xotin-qizlarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi.

22-Mavzu. Iqtisodiyot oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonning mohiyati

Iqtisodiyot oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonning mohiyati. Iqtisodiy oliy ta'lim jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponent ekanligi. Ta'lim jarayonida ilmiy bilimlarni egallash. Muayyan iqtisodiy va pedagogik fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish. Iqtisodiy ta'limning tamoyillari. Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan iqtisodiyot, texnika va ilmiy o'qitish. Ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularni iqtisodiy fanda qo'llanilishi. Ta'lim oluvchilarning o'quv, mehnat faoliyatini tashkil etish. O'quv materialini qabul qilish. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari. Iqtisodiy oliy ta'lim jarayonida malakaviy bilimlarni olish. Shaxsiy ma'lumotning mazmuni. Malakali rivojlanishning sub'ektiv monitoringi. Ta'lim oluvchilarning malakaviy rivojlanishini shaxsiy mo'ljalga olish texnologiyasi. Iqtisodiy ta'limning samaradorlik mezonlari.

23-Mavzu. Innovasiya jarayoni va uning asosiy bosqichlari

Innovasiya jarayoni haqida tushuncha. Innovasiya jarayonining maqsadi.

Innovasiya jarayonining asosiy bosqichlari: fikr (axborot)larni yig'ish va umumlashtirish; g'oyalarni aniqlash (yangi pedagogik ilmiy mahsulot yoki texnologiya g'oyasini ishlab chiqish); yangi pedagogik ilmiy mahsulot yoki texnologiya samaradorligining tahlili, uning marketing dasturini ishlab chiqish; yangi pedagogik ilmiy mahsulot yoki texnologiyani yaratish; ta'lim xizmatlari bozorida test o'tkazish; yangilikni tijoratlantirish.

Innovasiya jarayonlari mexanizmi: g'oya, ishlanma, innovasiya.

Innovasiya jarayonlari mexanizmi afzalliklari: davlat buyurtmasi; soliq imtiyozlari; arzon texnologiya; mualliflar hamkorligi; intellektual mulkka egalik. Innovasiyalarning ilmiy, huquqiy va axborotli ta'minoti.

24-Mavzu. Oliy ta'limda o'qitishni tashkillashtirishning nazariy asoslari

Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'qitish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. O'qitishning psixologik asoslari. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati. O'quv faoliyatining tuzilishi. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini shakllantirish. O'zlashtirish jarayoni. O'zlashtirish darajasi. O'qitish maqsadlari. Mutaxassis modeli o'qitish maqsadlarini belgilashning asosi sifatida. O'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari. Maqsadlar taksonomiyasi.

25-Mavzu. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini boshqarish

Ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari va asosiy bosqichlari. Amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarining axborot ta'minoti. Ilmiy-tadqiqot ishlarining ilmiy-pedagogik mahsulotlarini baholash usullari.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy vazifalari va bosqichlari. Ish sifati ko'rsatkichi va uning samaradorligi. Ishlanmalar samaradorligini boshqarish. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini boshqarishda menenjerlarning asosiy vazifalari.

Zamonaviy ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlari uchun sarflanadigan xarajatlar. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarining innovatsiya va strategiyaga asoslanganligi.

Pedagogik (ta'limiy, tarbiyaviy) texnologiyalar. Texnologiya jarayonlarining sifati. Tanlangan ta'limiy, tarbiyaviy texnologik qarorlarning maqsadga muvofiqligini belgilovchi mezonlar.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarining moliyaviy tahlili. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar samaradorligining baholanishi.

26-Mavzu. Innovasion faoliyatni moliyalashtirish

Ta'lim muassasalari va tashkilotlarida innovasion faoliyatning moliyaviy-kreditli qo'llab-quvvatlanishi.

Davlat va byudjetdan tashqari manbalar. Turli xil manbalarning maqsadlari va investitsiya ustuvorliklari. Innovasiyalarni moliyalashtirish shakllari va tizimi.

Ta'lim muassasalari va tashkilotlarida innovasiya resurslarining manbalari. Innovasiya jamg'armalari va banklari. Innovasiya loyihalarini moliyalashtirish xususiyatlari.

27-Mavzu. Innovasion loyihalar va ularning samaradorligini baholash usullari

"Innovasion loyiha" tushunchasi. Innovasion loyihaning tuzilishi. Innovasion loyihalarining turlari va ularni ishlab chiqish bosqichlari. Innovasion loyihalarini majmuaviy baholash va tanlash usullari.

Innovasion loyihalarni rejalashtirish. Loyihani boshqarishni tashkil etish. Loyihalar bo'yicha ishlarni nazorat qilish va tartibga solish. Loyihaning

muvaffaqiyati va uni belgilovchi mezonlar. Loyihaning tayanch modeli. Innovasion loyihaning samarasizlik sabablari. Loyihalarni yakunlash tartibi.

Loyihalar portfelini shakllantirish masalalari. Ijodiy guruhlarini boshqarish. Tadqiqot loyihasi uchun xodimlarni tanlash. Loyihaviy boshqaruvda xodimlarni o'qitishga nisbatan amaliy yondashuv. Innovasion loyihalarni boshqarish bo'yicha menejerning asosiy vazifalari.

Innovasion loyiha tahlilining umumiydashgan chizmasi. Innovasion loyiha samaradorligi va uning asosiy ko'rsatkichlari. Loyihaning foydalik indeksi usuli va uning ahamiyati. Loyiha rentabelligi indeksi. Innovasion loyiha samaradorligini baholash uchun zarur bo'lgan dastlabki ko'rsatkichlarining hisob-kitobi.

28-Mavzu. Ta'limda kredit-modul tizimi

Kredit-modul tizimi tamoyillari. Kredit ta'limning o'lchov birligi. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim. Talabalarning mobilligini kuchaytirish. Iqtisodiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv yuklamasining muvozanatli taqsimoti. O'quv dasturda fanlarning saralanishi. Kredit-modul tizimida talabalar bilimni baholanishi (baholar konvertasiyasi)

29-Mavzu. Oliy ta'lim jarayonida pedagogik metodlarni qo'llash

Hozirgi zamon o'qitish vositalarining yaratilishi, tavsifnomasi. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari. Ta'limiy fikrlashni rivojlantirish. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim berish uslublari. Amerikacha va inglizcha munozara. Kichik guruhlariga bo'lib ishlash, debatlar, bahs munozaralarni tashkil etish usullari. O'quv mashg'ulotlarni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish uslubi. Guruhlarni juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib ta'lim o'tishi uslubi. Ta'lim jarayonida modellashtiruvchi o'yinlarni qo'llash. Modellashtiruvchi o'yin usulining afzalliklari.

30-Mavzu. Ta'lim sifatini monitoringining nazariy-metodologik asoslari

Ta'lim tizimlarini tadqiq etishga umumiy yondashuvlar. Ta'lim sifatini tadqiq qilishning metodologik asoslari. Ta'lim tizimli tahlil va modellashtirish ob'ekti sifatida. Ta'lim sifatini boshqarish ilmiy bilish va amaliyot sohasi sifatida. Ta'lim sifatini rejalashtirish. Ta'lim sifati monitoringining innovasion xususiyati. Ta'lim sifati monitoringi jarayonini loyihalashtirish.

31-Mavzu. Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash

Ta'lim sifatini o'lchash hamda baholash shakl va metodlari, indikatorlarini tanlash. Ta'lim sifatining nazorat va o'lchov tizimi. Ta'lim sifatini nazorat qilishning kompleks tizimi.

32-Mavzu. Ta'lim muassasasi faoliyatini baholash

Ta'lim muassasalari attestatsiyasi va akreditatsiyasi. Ta'lim muassasasi xodimlari attestatsiyasi. Ta'lim muassasalari reytingini aniqlash. Ta'lim muassasalarini litsenziyalash. Sertifikatlashtirish.

33-Mavzu. Ta'lim sifatini baholashning xalqaro tizimi

Ta'lim sohasida test sinovi xizmati (ETS – Educational Testing Service, AQSh). Kanada statistika markazi (Statistics Canada). O'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assotsiatsiyasining sekretariati (IEA, Niderlandiya). O'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assotsiatsiyasining natijalarni qayta ishlash markazi (DPC IEA – Data Processing Center IEA, Germaniya). Yaponiya ta'lim sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti (NIER). Umumta'lim maktablari o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha baholash xalqaro tadqiqot TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study). O'quvchilarning ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturi PISA (Programme for International Student Assessment). Matnni o'qish va tushunish sifati xalqaro tadqiqoti PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). Ta'lim berish va o'qitish tizimlari bo'yicha xalqaro tadqiqot (TALIS).

34-Mavzu. Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi

Davlatning iqtisodiy funksiyalari va uning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvi zarurligi. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosat ko'rinishlari. Iqtisodiyotda resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olgan holda qayta taqsimlash. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida xudud va mahalliy xokimiyatlarini islox qilish yo'llari. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va uning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvi zarurligi. Davlat tomonidan yuritiladigan iqtisodiy siyosatning ko'rinishlari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining davlat tomonidan tartibga solinish strategiyasi.

35-Mavzu. O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining innovatsion salohiyati

Iqtisodiyotni tartibga solish zarurligi va yo'llari. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish. Iqtisodiy islohotlarning bozor infratuzilmasini rivojlantirishdagi o'rni. Bozor infratuzilmasi tushunchasi. Infratuzilmaning tarkibi. Bozor infratuzilmasi va iqtisodiy o'sish. Valyuta va qimmatli qog'ozlar bozori. Iqtisodiy institutlar milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish asosi sifatida.

36-Mavzu. Bilimlar iqtisodiyotining ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanish jarayonidagi roli

Ilmiy-texnik taraqqiyot va bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim. O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan milliy innovasion tizim va uning ahamiyati. O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti asosida milliy innovasion tizimlarning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar. Iqtisodiyotda intellektual kapital. Mintaqalarning innovasion rivojlanish sikllari.

37-Mavzu. Iqtisodiyotda axborot resurslari innovasion rivojlanishning asosiy omili sifatida

Bilimlarni boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Bilimlarni boshqarishning funksiyalari va metodlari. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda axborot texnologiyalardan foydalanish. Yangi texnologiyalarni joriy etishda innovasion rivojlanishning muvaffaqiyat omillari. Innovasion texnologiyalarni joriy etish orqali

kompaniyalarning muvaffaqiyatli innovasion rivojlanish misollari. Bilimlarni boshqarishning komponentlari: aksiologik komponent, texnologik komponent, shaxsiy-ijodiy komponent.

38-Mavzu. Korxonada mehnat resurslari va ulardan foydalanish, mehnatni tashkil etish va haq to'lash

Xodimlar va ularning korxona faoliyatidagi o'рни. Zamonaviy sharoitlarda korxonaning kadrlar siyosati. Korxona hodimlari, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxona hodimlari harakati va uni rejalashtirish. Ishchilar – korxona ishlab chiqarish personalining asosiy qismi. Korxonada mehnat unumdorligi va uni oshirish rezervlari. Korxonada mehnatga haq to'lash. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlari. Mehnatga haq to'lashning tarifsiz tizimi. Mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Kadrlar siyosati va mehnatga haq to'lashni tashkil etishda korxonaning vakolatlari.

39-Mavzu. Strategiya yaratishning vazifalari

Korxona faoliyati yo'nalishlarini belgilash omillari. Kompaniya missiyasi, strategik ko'ra bilish, faoliyat yo'nalishini tanlash o'rtasidagi bog'liqlik. Missiyani vazifalarga aylantirish. Strategik boshqarish tamoyillari. Strategiyaning tashkiliy darajalari. Korporativ strategiya. Ishbop strategiya. Funktsional strategiya. Amaliy strategiya. Strategiya turlarining o'zaro bog'liqligi. Strategiyaning ishlab chiqishga yondoshuv turlari. Bosh strategik yondoshuv. Vakolatlarni boshqalarga o'tkazish. Birgalikda kolloborasion yondoshuv. Tashabbuskor yondoshuv. Strategiya yaratishda missiya, maqsadlar, strategiyalar birligi. G'olib strategiya mezonlari. Muvofiq kelish darajasi. Raqobat kurashida ustunlik.

40-Mavzu. Kadrlar salohiyatini tahlil qilish va ularni ish bilan ta'minlash. Personalni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Kadrlar salohiyati. Kadrlarni ish bilan ta'minlash va ularni joy-joyiga qo'yish. Kadrlar solohiyatini tahlil qilish.

Personalni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi. Personalni tayyorlash va qayta tayyorlash shakllari.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-T.:O'zbekiston, 2017.- 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. 2020 yil 23 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022 yil 28 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2019 yil 8 oktyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori, 2017 yil 27 iyul.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori. 2017 yil 22 may.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi yig'ilishidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 21 yanvar, № 15 (7517)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 22 yanvar, № 16 (7518)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 23 yanvar, № 17 (7519)
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: Ma'naviyat. – 2021. – 278 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda Parlamentga Murojaatnomasi // 2022 yil, 20 dekabr.
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: O'zbekiston. 2021 yil, 464-b.
14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik—har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
15. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash– yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b
17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : O'zbekiston, 2017. – 488 b.
18. Heather Fry., Steve Ketteridge., Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Third edition. This edition published 2009 by Routledge ,Inc.p 525.
19. Greg Light, Roy Cox, Susanna Calkins. Learning and Teaching in Higher Education. Los Angeles, London, New Dehli. 2014, 341 p.

Ilmiy adabiyotlar

1. Akimova O.B., Ismailova Z.K., Maxsudov P.M., Utkina S.N. Metodika professionalnogo obucheniya. – T.: Navro'z, 2020.-146 s.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro'zieva D.I., Usmonboeva M.H. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.– Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. – 256 bet.
3. Fayzullaeva N.S. Islamov A. Ekonomika i menedjment v obrazovanii.TDIU 2019.
4. Fayzullaeva N.S. Ta'lim menejmenti. - T.: Fan va texnologiya, 2009.
5. Xakimova M.F., Mamarajabov Sh.E. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi - T.: Iqtisodiyot, 2021, 200-bet.
6. Hakimova M.F., Musaxanova G.M. Kasbiy pedagogika – T.: TDIU, 2019, 324-bet.
7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv metodik qo'llanma. /– Toshkent, 2015. –120 bet.
8. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T.: Moliya, 2002.
9. Tojiboeva D., Yoldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: Aloqachi, 2018. -568 b.
10. Hakimova M.F., Mamarajabov Sh.E. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: Iqtisodiyot, 2021.-138 b.
11. Xodjaev A.A. va boshqalar. Ta'lim tizimini boshqaruvini takomillashtirishda monitoring roli: ilmiy-uslubiy qo'llanma. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2014. -80 b.
12. Mamarajabov Sh.E. Ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish va baholash nazariyalari va metodlari (o'quv qo'llanma). –T.: Iqtisodiyot, 2021. -180 b.
13. Dustmuxammad X. Xalq ta'limi muassasalarini moliyaviy mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Iktisodiyot, 2015. - 205 bet.
14. Korznikova G.G.Menedjment v obrazovanii. Prakticheskiy kurs. - M.: Akademiya, 2008.
15. Kotler F., Keller K.L. Marketing menedjment. Uchebnik. Ekspress-kurs. 3-ye izdanie. – SPb.: Piter, 2012. –480 s.

16. Murtazaev S. Mehnat bozorida ta'limning roli. – T.: 2013. -156. Irmatov X, Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2008. - 288 bet.
17. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –54
18. Michael J. Feuer., Robert E. Floden., Naomi Chudowsky., Judie Ahn. Evaluation of Teacher Preparation Programs. Copyright 2013 by the National Academy of Education. All rights reserved.Inc.p120. <http://www.naeducation.org>.
19. Pauline Davis.,Lani Florian. Teaching Strategies and Approaches for Pupils with Special Educational Needs: A Scoping Study. Copyright © Queen's Printer 2004, Inc.p 87.
20. Tojiboeva D. va boshq. Iqtisodiy pedagogika. -T.: Fan va texnologiya. – 2008. – 256 b.
21. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. - T.: O'qituvchi, 2001.

Internet saytlar

1. www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.ereport.ru- Obzornaya informasiya po mirovoy ekonomike
4. www.stplan.ru- Ekonomika i upravlenie
5. www.catback.ru- Научные стати i учебные материалы po ekonomike
6. studme.org/ -Учебные материалы dlya studentov.
7. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi sayti.
8. [www. stat.uz](http://www.stat.uz)– O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi sayti.
9. <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb sayti.
10. <http://www.tseu.uz> – TDIU ning rasmiy veb sayti.